

“SQB+UZCARD=YANGI IPHONE” AKSIYASI BO‘YICHA OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, ommaviy oferta hisoblanadi va “SQB+UZCARD=Yangi iPhone” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish shartlarini, unda ishtirok etish tartibini, Aksiya tashkilotchilari va ishtirokchilarining huquq hamda majburiyatlarini, shuningdek ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa shartlarni belgilaydi. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi.

1.2. Ushbu Qoidalar Aksiyasini o‘tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi.

1.3. Aksiya tashkilotchilari: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) va “Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ (keyingi o‘rinlarda – Uzcard).

1.4. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi hududida, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimi doirasida o‘tkaziladi.

1.5. Aksiya o‘tkazilish muddati: 2026-yil 2-fevraldan 2026-yil 31-maygacha.

2. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

2.1. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezident va norezidentlari ishtirok etishi mumkin. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB hamda “Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ishtirok etmaydi.

2.2. Aksiyada ishtirok etish ushbu Qoidalariga Ishtirokchi tomonidan to‘liq va so‘zsiz rozilik bildirilganini anglatadi.

2.3. Aksiyada ishtirok etish bepul bo‘lib, Ishtirokchilardan hech qanday qo‘shimcha to‘lovlar talab etilmaydi.

2.4. Ushbu Qoidalariga rioya qilinmagan taqdirda, Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish hamda sovrin olish huquqidan mahrum etiladi. Sovrinni olish uchun Ishtirokchi Aksiya muddati davomida, sovrin topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar imzolanganiga qadar, Qoidalariga muvofiq barcha talab etilgan shartlarni bajarishi shart.

3. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Bank va Uzcard’ning rasmiy sahifalariga (Telegram, Instagram, Facebook) obuna bo‘lishi hamda SQB Mobile ilovasi orqali “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan emissiya qilingan Uzcard kartasi yordamida quyidagi amallardan birini yoki bir nechtasini bajarishi kerak:

- savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida to‘lovlar;
- internet orqali onlayn to‘lovlar;
- P2P o‘tkazmalar;
- pul o‘tkazmalari;
- kommunal to‘lovlar;
- boshqa bir martalik to‘lovlar.

3.2. Aksiya 4 bosqichda o‘tkaziladi hamda har bir bosqich yakunida sovg‘alar taqdim etib boriladi.

3.3. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda ishtirok etish uchun bitta Uzcard kartasi orqali 500 000 (besh yuz ming) so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorida bir martalik tranzaksiya amalga oshirilishi lozim. Quyidagi amaliyotlar hisobga olinadi: savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida to‘lovlar, internet orqali onlayn to‘lovlar, SQB Mobile orqali P2P o‘tkazmalar, pul o‘tkazmalari, kommunal hamda boshqa bir martalik to‘lovlar.

3.4. Uchinchi bosqichda ishtirok etish uchun bitta Uzcard kartasi orqali 1 000 000 (bir million) so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorida bir martalik tranzaksiya amalga oshirilishi lozim. Quyidagi amaliyotlar hisobga olinadi: savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida to‘lovlar, internet orqali onlayn to‘lovlar, SQB Mobile orqali P2P o‘tkazmalar, pul o‘tkazmalari, kommunal hamda boshqa bir martalik to‘lovlar.

3.5. To‘rtinchi bosqichda ishtirok etish uchun bitta Uzcard kartasi orqali 2 000 000 (ikki million) so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorida bir martalik tranzaksiya amalga oshirilishi lozim. Quyidagi amaliyotlar hisobga olinadi:

savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida to'lovlar, internet orqali onlayn to'lovlar, SQB Mobile orqali P2P o'tkazmalar, pul o'tkazmalari, kommunal hamda boshqa bir martalik to'lovlar.

3.6. Valyuta ayirboshlash amaliyotlari hamda bankomat va terminallar orqali naqd pul yechib olish amaliyotlari inobatga olinmaydi.

4. AKSIYA SOVRINLARI

4.1. Aksiya sovrinlari Tashkilotchilar tomonidan shakllantiriladi va quyidagi sovrinlarni o'z ichiga oladi:

- **1-bosqich – Apple iPhone 17 Air;**
- **2-bosqich – Apple iPhone 17 Air;**
- **3-bosqich – Apple iPhone 17 Pro;**
- **4-bosqich – Apple iPhone 17 Pro Max.**

Sovrinlar tegishli bosqichlarning g'oliblari deb topilgan Ishtirokchilarga ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda beriladi.

4.2. Har bir bosqichda o'ynaladigan sovrinlar soni Tashkilotchilar tomonidan belgilanadi. Tashkilotchilar sovrinlarning qiymati va iste'mol xususiyatlarini kamaytirmagan holda ularning soniga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

4.3. Sovrinlar g'oliblarga shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganidan va identifikatsiya jarayoni o'tkazilganidan so'ng topshiriladi. Sovrinlar uchinchi shaxslarga berilmaydi.

4.4. Sovrin pul mablag'lariga yoki boshqa turdagi kompensatsiyaga almashtirilmaydi. Zarur hollarda sovrin faqat Tashkilotchilar tashabbusi bilan teng qiymat va texnik xususiyatlarga ega boshqa sovringa almashtirilishi mumkin.

4.5. Tashkilotchilar Ishtirokchining aybi bilan sovrinni olishning imkonsiz bo'lishi uchun javobr emas.

4.6. Sovrinni olish bilan bog'liq soliq majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi hamda Aksiya doirasida sovrin olish bilan bog'liq soliq majburiyatlarini bajarish uchun g'oliblar shaxsan javobgar hisoblanadi.

5. AKSIYANI O'TKAZISH VA SOVRINLAR GO'LIBLARINI ANIQLASH TARTIBI

5.1. Har bir bosqich bo'yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish davri va g'oliblarni e'lon qilish sanalari:

“O'zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan emissiya qilingan Uzcard kartalari egalari Aksiya shartlarini bajargan va Aksiya o'tkazilishining tegishli bosqichlarida zarur tranzaksiyalarni amalga oshirgan shaxslar ishtirok etadi:

- **1-bosqich: 02.02.2026 – 02.03.2026, g'oliblar 12.03.2026 gacha e'lon qilinadi;**
- **2-bosqich: 03.03.2026 – 01.04.2026, g'oliblar 11.04.2026 gacha e'lon qilinadi;**
- **3-bosqich: 02.04.2026 – 01.05.2026, g'oliblar 13.05.2026 gacha e'lon qilinadi;**
- **4-bosqich: 02.05.2026 – 31.05.2026, g'oliblar 10.06.2026 gacha e'lon qilinadi.**

5.2. Bankning sovrinlarni g'oliblarga topshirish bo'yicha majburiyatlari sovrinlar topshirilgan va qabul-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan deb hisoblanadi.

5.3. G'oliblar har bir bosqichda ishtirok etgan shaxslar orasida tasodifiy sonlar generatori yordamida tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi.

5.4. Aksiyada ishtirok etish fakti shuni anglatadiki, Ishtirokchilar o'zlarining ismlari, familiyalari, fotosuratlar va ular haqidagi boshqa materiallardan Tashkilotchilar tomonidan reklama maqsadlarida, O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan hajmda va usullarda, maxfiy axborotni oshkor qilmasdan, ularga hech qanday haq to'lamasdan foydalanilishiga rozilik beradilar.

5.5. Bank ushbu Qoidalariga o'z xohishiga ko'ra har qanday o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi hamda bunday o'zgartirishlar kuchga kirgan sanaga qadar Aksiya shartlarini to'liq bajargan Ishtirokchilar uchun Aksiyada ishtirok etish shartlarini qiyinlashtirmaslik sharti bilan. Bank mazkur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin www.sqb.uz rasmiy veb-saytida tegishli e'lon joylashtiradi. Bank sovrinlar ro'yxatini va ularning miqdorini o'zgartirish hamda kengaytirish huquqiga ega. Bank Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday zarar, yo'qotishlar, xarajatlar va boshqa sarf-xarajatlarni qoplamaydi hamda kompensatsiya qilmaydi.

5.6. Bank sovrindan foydalanish davrida g'olibning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

5.7. Aksiya o'tkazilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar sud orqali ko'rib chiqiladi.

5.8. Agar g'olib aniqlash natijasida Ishtirokchi tomonidan sovrin rad etilsa yoki belgilangan muddatda olinmasa, ushbu sovrin keyingi bosqichda o'ynaladi. Aksiya yakunlari bo'yicha Bank tomonidan bayonnoma rasmiylashtiriladi va mas'ul xodimlar tomonidan imzolanadi.

5.9. G'oliblarning ismlari Bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5.10. Aksiya sovrini g'olibi bilan Bank Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan telefon raqami orqali bog'lanadi va/yoki SQB Mobile orqali shaxsiy PUSH-xabarnomasini yuboradi.

5.11. Ishtirokchi tomonidan Aksiya shartlariga rioya qilinmasligi oqibatida yuzaga keladigan har qanday holatlar uchun Tashkilotchilar javobgar hisoblanmaydi.

6. ISHTIROKCHILARNI XABARDOR QILISH TARTIBI

6.1. Aksiya shartlari reklama videoroliklar, Bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari, internet va boshqa axborot kanallari orqali e'lon qilinadi.

6.2. Aksiya bo'yicha to'liq ma'lumot hamda ushbu Qoidalar Bankning rasmiy www.sqb.uz veb-saytining "E'lonlar" bo'limida joylashtiriladi.

6.3. Qo'shimcha ma'lumotlarni 1180 qisqa raqami orqali olish mumkin.

6.4. Aksiya o'tkazilishi muddatidan oldin to'xtatilgan, uning amal qilish muddati uzaytirilgan yoki ushbu Qoidalar o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar Bankning rasmiy www.sqb.uz saytining "E'lonlar" bo'limida joylashtiriladi.

7. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHGA ROZILIK

7.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Aksiyada ishtirok etish, g'oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish va natijalar haqida xabardor qilish maqsadida Tashkilotchiga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik bildiradi.

7.2. Ishtirokchi o'z ismi va tasviri (fotosurati) reklama materiallarida, shu jumladan internet tarmog'ida e'lon qilinishiga qo'shimcha rozilik bildiradi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

8.2. Ushbu Ommaviy oferta Bankning rasmiy axborot resurslarida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Aksiya muddati yakunlangunga qadar amal qiladi.